

ISAJON SULTON IJODIDA TABIAT TASVIRI

("Bog'i Eram" hikoyasi asosida)

Tilavova Iroda Hamro qizi

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yozuvchi Isajon Sultonning tasvirlash mahorati, ayniqsa, tabiat manzaralarini tasvirlashdagi mahorati "Bog'i Eram" hikoyasi orqali ochib berilgan. Hikoyadagi peyzaj tasviri mavjud o'rinlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: tasvir, peyzaj, statik peyzaj, dinamik peyzaj, interyer, kompozitsiya, hikoya.

Badiiy adabiyotda, xususan, epik asarlarda tasvirning yana bir turi – peyzaj, ya'ni tabiat tasviri qo'llaniladi. Peyzaj adabiy asarlarda muayyan g'oyaviy kompozitsion vazifa bajaradi. Badiiy asarlarda peyzajning qo'llanish yo'llari nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular yozuvchi uslubi va asar janri bilan belgilanadi. Ijodkor tabiat tasviri orqali o'zining turfa badiiy maqsadlarini ifodalaydi. Peyzaj – "Badiiy asarda aks ettirilgan joy, tabiat tasviri bo'lib, u yozuvchining metodi va uslubi bilan bog'liq holda turlicha vazifalarni o'taydi".¹

Peyzajda gap voqea-hodisa sodir bo'lgan fasl tasvirlansa, goh qahramonlar kayfiyatiga ishora qiladi va ularning ichki olami, ruhiyatini ochishga yordam beradi. Ba'zi hollarda esa epik asarni kompozitsiya qismlarini mazmunan bir-biri bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov bu haqda batafsilroq to'xtalib, kengroq mazkur istilohni kengroq ifodalab shunday yozadi:

"Peyzaj (fr. Paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) tasviri. An'anaga ko'ra peyzaj deyilgan tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish bir muncha torroq. Chunki peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so'z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko'zda tutadi. Shu ma'noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko'chasining tasviri ham peyzaj, holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir".²

Shunday ekan, peyzajni "tabiat tasviri" deb tarjima qiladigan yoki izohlaydigan bo'lsak, uning ma'nosi anchayin torayadi. Demak, epik asarlardagi tasvir obyektiga ko'ra peyzajni ikki turini – tabiat va joy tasvirini farqlashimiz mumkin bo'lsa, tasvirlash uslubi va o'rniga ko'ra ham ikki turga ajratamiz: statik va dinamik. "Yozuvchi peyzajni voqealar rivojini to'xtatib

¹ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1079. – Б.150-151;

² Курунов Дилмурод ва б. Адабиётшунослик луғати. – Toshkent: "Akademnashr", 2013. 221-bet

qo‘yganicha mufassal tasvirlashi (statik peyzaj) yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi (dinamik peyzaj) mumkin”.³

Tasvirning bir ko‘rinishini tashkil qilgan peyzajning barcha turini va kompozitsion birlik sifatida quyida yozuvchi Isajon Sulton asarlari asosida ko‘rib o‘tamiz. O‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan yozuvchilaridan biri Isajon Sulton hikoyalari kompozitsion jihatdan o‘ziga xos puxta tashkillanganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Adib ijodida inson va tabiat mavzusi muhim o‘rin tutadi. Buni tasvirlashda esa peyzajdan ham mohirona foydalanadi. Yozuvchi bu masalaga novatorona yondashadi. Hatto yozuvchining hikoyalar to‘plami kompozitsiyasida ham seziladi. Yozuvchi har bir kompozitsion unurning zimmasiga asosiy g‘oyani yoritib berishga xizmat qiluvchi muayyan vazifalarni ustalik bilan yuklaydi va ularning chiroyli natijasini asarni o‘qish davomida chuqur his qilish mumkin. Yozuvchining, ayniqsa, “Bog‘i Eram” hikoyasida statik tabiat tasviri kompozitsiyada asosiy o‘rin tutadi.

“Uyimizning orqa tomonidagi bedazorda issiqda o‘t-o‘lanlar orasiga tushib qolgan asalarilar bo‘g‘iq g‘o‘ng‘illashar edi. Bedazorning nihoyasidan zilol suvli ariq oqib o‘gan edi. O‘rtog‘im ikkalamiz onam yopgan nonlardan birini olib qochib, ariqqa oqizayotgan edik”.⁴ Hikoya aynan shunday – peyzaj bilan boshlanadi. Tasvirdan ko‘rinadi, sodir bo‘lishi kutilayotgan voqealar bahorning oxirlari yoki yoz oylariga to‘g‘ri keladi. Asarning aynan bunday yo‘sinda, ya‘ni tabiat tasviri bilan boshlash, kompozitsiyaning talabidir. Hikoyaladagi tabiat tasviri voqealar rivojida asarning asosiy qismi bo‘lib xizmat qilgan. Hikoyaning dastlabki voqea yuz berishi kerak bo‘lgan joy shu yer. Peyzajning asosiy detali esa ariqdir. Voqea davomida bu ariq bir necha marta tilga olinadi.

“Uning ortidan qarayman deb ariqdan hatladim-u chol ham esimdan chiqib, ko‘zlarim baqrayganicha qotib qoldim. Nimani ko‘rding deng? Qopqalari tilladan, tutqichlari billurdan bo‘lgan bir bog‘ning qarshisida ko‘rdim o‘zimni!”⁵

Hikoya sarlavhasidan anglashimiz munkinki, ushbu tabiat tasviri afsonaviy Bog‘i Eram chizgilaridir.

“U yerda nimalarni ko‘rganimni aytolmayman, aytganim bilan qanaqadir zaminiy narsalarga o‘xshab qolaveradi. U yerdagi daraxtlar, bizning ko‘rganimiz odatdagi daraxtlarga o‘xshab ketgani bilan, mutlaqo boshqacha edi. U yerdagi qushlar, suvlar... Bu bog‘ samoviy edi! G‘oyatda go‘zal edi!”

Mazkur tasvirlar sof xayoliy, afsonaviy tabiat manzarasi bo‘lib, bunda mifologik bog‘ – Sharq xalqlari og‘zaki ijodida parilar makonidir. Eram bog‘i gulzor, mevazor, o‘tloqzor, daraxtzorlar bilan qoplangan beqiyos, go‘zal afsonaviy tilsimli bog‘lar sifatida talqin qilinadi. Bu mashhur

³ Курунов Дилмурод ва б. Адабиётшунослик луғати. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013. 221-bet

⁴ Исажон Султон. Боғи Эрам. – Тошкент: “Шарқ”, 2015. 212-бет

⁵ Исажон Султон. Боғи Эрам. – Тошкент: “Шарқ”, 2015. 213-бет

⁵ Исажон Султон. Боғи Эрам. – Тошкент: “Шарқ”, 2015. 213-бет

afsonaviy tilsimli – sexrli bog‘ obrazidan yozuvchilar o‘z ijodiy maqsadiga ko‘ra foydalanadilar.

“Qopqaning shundoq yonginasida judayam ulkan bir yashil daraxt bor ekan. Shoxlari bulutlar orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan. Har zamon-har zamonda shoxlaridan yaproqlar uzilib tushayotir. Mana, shundoqqina oyog‘im ostiga sarg‘aygan bir barg kelib qo‘ndi. Egilib qarab, bargda yozuv borligini ko‘rdim. Sarg‘ish tomirchalari bo‘rtib turgan yaproq sirtiga «Xolmuhammad Ziyo o‘g‘li» deb bitilgan edi”.⁶

Peyzajning asosiy yukini yelkasiga olgan “shoxlari bulutlar orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan ulkan yashil daraxt”, “har zamon-har zamonda shoxlaridan uzilib tushayotgan yaproqlar”, “sarg‘aygan barg”, “Sarg‘ish tomirchalari bo‘rtib turgan yaproq” detal tasvirlarda yozuvchi majoziy ma‘no yuklaydi. Hayot falsafasini tug‘ilish va o‘lish jarayonini tabiat hodisasi bilan bog‘laydi. Tasvir yaratishda ranglardan mohirona foydalanadi. Shohlari bulutlar orasida ko‘rinmay ketgan yashil daraxtda– gurkirab yashnayotgan hayot aks etsa, sarg‘aygan yaproqlar esa umrning xotimasiga ishora qiladi.

Hikoyada aynan shu bog‘ to‘rt o‘rinda o‘zgarishlar bilan takror qalamga olinadi. Har bir tasvirda bosh qahramon, umumiy ma‘noda, insonning o‘tib borayotgan umriga monand falsafa aks etadi. Asar deyarli tabiat tasviri asosiga qurilgan. Tasvirdagi yorqin, oq ranglar, nurlar inson qalbi kengliklaridagi chin mohiyatni ochib yoritib beradi. Asardagi har bir tabiat tasviri ramziylik asosiga qurilgan bo‘lib, hayot haqidagi muayyan xulosalarni beradi.

Adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat o‘z izlanishlarida “Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma‘no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo‘shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo‘lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To‘g‘rirog‘i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma‘noli va ta’sir usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o‘qib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmi his etamiz”⁷, – deya ta’kidlaganida butunlay haq edi.

Hikoyadan olingan mazkur parchada joy, makon – qishloqning dinamik tasvirini ko‘ramiz. Qahramon ruhiyatiga xos hissiy evrilishlarni tabiat hodisalari bilan uyg‘unlashtira olgan Isajon Sulton hikoyalari o‘zgacha kayfiyat va ruh bilan mutolaa qilinadi. Adib yaratgan peyzaj tasvirlari ramziy-falsafiy xususiyatga ega. Yozuvchi tabiat hodisalariga ham alohida poetik vazifani yuklay olgan.

Keltirilgan misol va tahlillardan ayon bo‘ladiki, epik asarlarda peyzaj, umumiy ma‘noda, tasvir yuksak mahorat bilan yaratilganda, ijodkor badiiy maqsadi uchun xizmat qilganda, boshqa komponentlar singari asar g‘oyasi bilan bevosita yoki bilvosita birlasha olganda, yozuvchi ko‘zlagan badiiy niyatni to‘la qonli hosil qilganda muhim ahamiyatga ega kompozitsion vosita sifatida e’tirof etilish mumkin.

⁷ Раҳимжон Раҳмат. “Муножот”дан “Боқий дарбадар”гача. Сўнгсўз ўрнида // Боқий дарбадар. Т., Ўзбекистон, 2011.Б. 262.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Султон И. Боғи Эрам. – Тошкент: Шарқ, 2005.- 253 б.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari // Badiiy nutqning ritmikligi. – T.: Navoiy universiteti, 2018. B – 475 б
3. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Toshkent. Akademnashr, 2013. – 405 б
4. Султон И. Боқий дарбадар. – Тошкент: Ғ. Ғулом. 2011.- 360 б.

